

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA BUYUK BRITANIYA XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI

Toshboyeva Farangiz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O`zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi tashqi siyosatining olib borishi, ya`ni Buyuk Britaniya O`zbekiston aloqalariga bag`ishlanadi. Maqolada ushbu davlatlarning manfaatli savdo aloqalari hamda savdo aylanmasi, madaniy gumanitar hamkorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: integratsiya, memorandum, parlament, pakt, protsess, analogik ,tarixshunoslik.

Mustaqil O`zbekiston respublikasi hamda Buyuk Britaniya aloqalari tarixi va manbashunosligi haqida so`z yuritar ekanmiz avvalo ikkala davlatning hamkorlik odimlariga bir nazar tashlasak. 1991 yilning 31 avgusti – O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi rasman e`lon qilingan kun mamlakatimiz uchun yangi tarixiy davr –buyuk kelajakka chog`langan erkin, suveren rivojlanish davri boshlangan qutlug’ sana bo`lib qoldi. O`zbekistonning tashqi dunyodan asriy to’sib qo’yilganiga barham berildi. O`zbekistonning qudratli salohiyatini butun dunyo yaqqol ko’rdi hamda uning cheksiz imkoniyatlari va istiqboliga baho berdi. Bugun bosib o’tilgan 25 yillik yo’l sarhisob qilinar ekan, faol tashqi siyosat yuritish boshlanishi bilan xalqaro soha o’ziga xosliklari va qonuniyatlari bilan O`zbekiston uchun davlat va jamiyat faoliyatining mustaqil sohasi bo`lib qolgani yaqqol ko’rinadi. O`zbekiston, albatta, xalqaro huquknинг teng xuquqli a’zosi bo’lishi, o’z davlatchiligini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, murakkab ziddiyatlarga boy bo’lgan dunyoda munosib o’rnini egallashi lozim edi. Aynan shu konsepsiylar asosida davlatlararo aloqalarni musthkamlash assosi qurildi. O`zbekiston hamda Buyuk Britaniya davlatlari munosabatlarining asosi 1993-yil noyabr oyida Ozbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ushbu mamlakatga buyurgan tashrifi chog`ida yaratilgan. Ikki mamlakat o’rtasida hamkorlik shartnomalarining imzolangandan so`ng, aloqlar mustahkamlanishining debochasi bo`ldi. 1993-yil 17-19-iyul kunlari Buyuk Britaniya qirolichasining qizi Malika Anna O`zbekistonda bo`lib, mamalakatimiz, xalqimizning turmush tarsi bilan

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

tanishib, Samarqand shahrining o`lmas tarixiy yodgorliklarini ziyorat qilib ketgan edi. 1994-yil 4-12-oktabr kunlari Toshkentda “Britaniya festivali” o`tkazildi. Festival dasturi doirasida Buyuk Britaniyaning 30ga yaqin mahsulotlari ko`rgazmasi namoyishi bo`lib o`tdi. 1993-yil 15-oktabr kuni Buyuk Britaniya tashqi ishlar va va hamdo`stlik ishlari bo`yicha bosh vazir Duglass Xog ning O`zbekistonga rasmiy safari chog`ida ikki davlat o`rtasida madaniyat vat a`lim sohalaridagi hamkorlik, ikki yoqlama soliq olmaslik haqidagi bitimlar imzolandi. 1993-yil 22-23-noyabr kunlari O`zbekiston prezidenti I.Karimov boshliq reabpublikamiz delegatsiyasining rasmiy tashrifi. Safar chog`ida delegatsiya a`zolari ingliz qirolichasi Yelizavetta II hamda bosh vazir Jon Meyjor bilan uchrashishdi. Uchrashuvlar natijasida O`zbekiston respublikasi va Buyuk Britaniya qirolligi o`rtasida” to`g`risidagi shartnoma “Sarmoyalarni o`zaro rag`batlantirish va himoyalash to`g`risida” bitim, “havo yo`llarini ochish to`g`risida” ikki mamlakat o`rtasida fuqarolarning erkin yurishi to`g`risida memorandum imzolandi. Mashhur Rotshildlar oilasi banki hamda Yevropa tiklanish banki bilan uchrasuvlari bo`lib o`tdi. Ta`kidlash joiz, O`zbekiston dunyoning turli davlatlari bilan o`zaro manfaatli munosabatlarni yana-da mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bormoqda. Bu jarayonda, jumladan, xalq diplomatiyasidan ham unumli foydalanimoqda. Mamlakatimizda barcha millat vakillari uchun o`z madaniyati, urf-odatini asrab-avaylash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Xususan, bugungi kunda O`zbekistonda 36 ta do`stlik jamiyat faoliyat olib bormoqda, 143 ta milliy-madaniy markaz ishlab turibdi.

Lui Skiner “Britaniya – O`zbekiston” jamiyatining 20 yillik tarixida o`zaro xalq diplomatiyasini rivojlanayotgan, ulkan iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatga ega hamkor davlat sifatida ko`radi. Keyingi yillarda mamlakatlarimiz o`rtasida turli sohalar, jumladan, madaniyat, san`at yo`nalishidagi hamkorlik aloqalari yana-da rivojlanayotgani tahsinga sazovor. Bunda ikki mamlakat xalqlari o`rtasidagi xalq diplomatiyasiga asoslangan aloqalar muhim ahamiyat kasb etayotir.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, ushbu mavzuni yotishda manbaalarning xilma-xilligi hamda ular orasidagi tafaut uning asl mohiyatiga putur yetkazmasligiga ahamiyat qaratilish lozim. Shuningdek bugungi kundagi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

tashqi iqtisodiy integratsiyalar ni o`rganishda ushbu mavzularda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy izlanishlari chetda qolmasligi hamda ular mavzuning asosiy o`rganish obyekti bo`lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Касымов А, Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан – Т.: Узбекистан, 1994.
2. Каримова Г.И. Политико-экономические реформы в Узбекистане: реалии и перспективы. – Т.: Узбекистон, 1995.
3. Сулейманова Ф. Шарк ва Парб. – Т.: Узбекистон. 1997.
4. Узбекистон Республикаси мустакиллигини мустакамлашда касаба уюшмалари. (илмий-методик ва назарий конференция матнлари туплами). – Ташкент, Университет. 1996.
5. Холлиев Азизбек Гузалбекович. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана в Великобританией и США: автореферат докторской диссертации
6. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУХОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
7. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
8. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.